

ZAMONAVIY O'ZBEK TILIDA NEOLOGIZMLARNING PAYDO BO'LISHI

Daminova Maxliyoxon Ikromjon qizi

Farg'ona davlat universiteti 1- bosqich magistranti

daminovamahliyo1@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada neologizm tushunchasi, uning tilda paydo bo'lish sabablari va tarixi hamda neologizmlarning o'zbek tilidagi o'rni va roli atroflicha o'rganiladi.

Kalit so'zlar: leksika, neologizm, tushuncha, individual neologizmlar; umumtil neologizmlari.

Annotation: In this article the conception of neologism, reasons for their appearance in a language and their history, in addition, the role and position of neologisms in Uzbek language are investigated.

Key words: lexis, neologism, conception, individual neologisms, general neologisms.

Zamonaviy o'zbek tilida davrlar mobaynida uning barcha sohalarida bo'lgani singari leksikasida ham turli xil o'zgarishlar va yangiliklar sodir bo'ldi. Ya'ni globallashuv va xalqaro aloqalarning o'sib borishi natijasida til sathiga chetdan ko'plab yangi tushunchalar va atamalar kirib kela boshladi. Til ochiq sistema bo'lganligi uchun kishilarning o'zaro axborot almashinuvi jarayonida fikrlar va tushunchalarni aynan ifodalash maqsadida boshqa tillardan olib kirishga to'g'ri keladigan ayrim tushunchalar o'z navbatida tildagi lug'at tarkibiga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Neologizmlar ana shu ehtiyojni qondirishga xizmat qilganligi bois ularni tadqiq etish va o'rganish tilshunoslikning dolzarb muammolaridan biri sifatida har doim tilshunoslarning diqqat markazida bo'ldi.

Qayd etish lozimki, ko'plab tilshunoslar bu muammoni yuksak baholagan holda o'zlarining fikr va mulohazalarini berib o'tishgan. Jumladan, mashhur tilshunos L.V.Shcherba bunday jarayonni tadqiq etilishi lozim bo'lgan muhim muammolar qatoriga kiritadi. Boshqa bir olim V.A.Bogoroditskiy ona tilini o'rganishda boshqa tillarning ham unga nisbatan ta'siri mavjudligini yodda tutish zarurligini aytib o'tadi. Bu, albatta, hech bir til faqatgina o'zining leksik birliklari bilan boyib qolmasligini, dunyodagi barcha tillarda boshqa tildan o'zlashgan atama va tushunchalar borligini yana bir bor isbotlaydi,

Ammo shuni ta'kidlash lozimki, o'zbek tilshunosligida bu masala chuqur o'rganilgan va tadqiq etilgan masalalardan biri, deya olmaymiz. Chunki yangi so'zlarni to'liq o'rganib chiqish va tasnif qilish oson ish emas, albatta. Boshqa til bo'limlari:

fonetika, morfologiya va sintaksis singari sistemalash usulida o'rganish aynan bu sohaga kelganda ancha qiyinroq va uzoqroq vaqt talab etadigan ish hisoblanadi. Shunga qaramay, o'zbek tilshunoslaridan N.V.Yushmanov o'zining bir qator tadqiqotlarida neologizmlar va ularning bir tildan boshqa tilga kirib kelishi jarayonini yoritib berishga harakat qilgan. Bundan tashqari, bir qancha maqola va tezislarda, bitiruv malakaviy ishlari va qator boshqa tadqiqot manbaalarida yangi kirib kelgan so'zlarning tilimizdagi o'rniga bag'ishlangan fikr va mulohazalarni ko'rishimiz mumkin.

Umuman olganda, neologizm atamasining kelib chiqishi XVIII asrning ikkinchi yarmiga borib taqaladi. Ilk bor inglizlar fransuzcha neologisme so'zini o'z tillarida qollay boshlagan paytda bu atama fanga kirib keldi. Ammo uning ilk ildizlari ancha uzoq davrga borib taqaladi va yunoncha neos "yangi" hamda logos "so'z" o'zagidan kelib chiqan degan qarorga kelingan. Bundan ko'rinadiki, neologizmlar asrlar davomida tillarni boyitishga yordam beruvchi vosita sifatida tan olingan va yuqorida qayd etganimizdek, ularga o'z navbatida ehtiyoj ham bo'lgan. Chunki davr taqazosi bilan jamiyatda yangi voqelik paydo bo'ladi va o'z navbatida, bu voqelikni nomlashga zaruratning ham payudo bo'lishi yangi termin (atama)larning yaratilishiga olib keladi. Bunday atamalar ikki xil yo'l bilan shakllantiriladi: 1) o'zbek tilida shu voqelikni to'laqonli ochib berishga qodir so'z yoki birikmalar orqali; 2) o'sha voqelikning nomini chet tilidan olish orqali. Har ikkala holatda ham yasalgan yangi so'z neologizm hisoblanaveradi.

Neologizmlar darstlab ma'lum kishilar nutqida namoyon bo'ladi. Keyinchalik, ular zamon talabi bilan yo umumxalq tiliga o'tishi yoki faqatgina o'sha shaxs nutqidagina saqlanib qolishi mumkin. Shunga ko'ra ular ikki guruhga bo'linadi: a) individual neologizmlar; b) umumtil neologizmlari.

Individual neologizmlar asosan, badiiy asarlarda uchraydi. Ularni muallifning o'zi o'quvchiga tanish voqelikni ifodalash maqsadida mazmundoelikni oshirish uchun yangicha atama bilan berishni afzal ko'radi. Masalan, Tohir Malikning "Shaytanat" asarida "*Bek akang ko'rinmay qoldi-ku? dedi kesak polvon labiga sigaret qistirib. Xumkalla cho'ntagidan chaqqonlik bilan yoqqich olib unga olov tutdi...*" jumlasini keltiriladi. Ushbu gapdagi *yoqqich* so'zi muallif tomonidan rus tilidagi "zajigalka" so'zining muqobili sifatida qo'llanilgan va bu orqali muallif tilimizga yangi so'z olib kirgan. Ammo bu so'z oradan vaqtlar o'tgan bo'lsada umumtil neologizmga aylanmagan, chunki u faqatgina muallif nutqida qo'langanligicha qolib ketgan va til ixtiyoriga o'tmagan.

Biroq keyinchalik, o'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi tilimizda neologizmlar salmog'ini o'stirdi, iqtisodiyot va bozor munosabatlarining rivoji hamda ommaviy axborot vositalarining takomillashuvi chetdan ko'plab yangicha tushuncha va atamalarning o'zbek tiliga o'zlashishida muhim omil bo'ldi. Jumladan, *bank, kredit,*

litsenziya, televediniye, media va intervyu kabi ingliz va rus tillaridan kirib kelgan soʻzlar bundan 30 yillar avval neologizmlar sifatida qaralgan va kishilar uchun yangicha tushuncha boʻlib xizmat qilgan. Hozirgi kunga kelib bu kabi soʻzlar kundalik hayotda koʻp qoʻllanilganligidan allaqachon oʻzbek til qatlamining bir boʻlagiga aylanib boʻlgan va hech kim uchun ular yangicha maʼno kasb etmaydigan holga kelib qolgan. Demak, neologizmlar ham “eskirar” ekan. Davr talabi bilan yangidan yangi tushunchalar paydo boʻlaveradi, ular butun xalq yoki insoniyatga tushunarli boʻlib ulguranda yana boshqa atamalar paydo bolishda davom etadi va bu kabi hodisalar natijasida tillarning lugʻat boyligi oʻsib boraveradi. Tilni, shuning uchun ham, sarhadsiz dengizga oʻxshatish mumkin.

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, til jamiyat boyligi va koʻzguvidir. U orqali jamiyat aʼzolari oʻzaro aloqaga kirishar va maʼlumot almashar ekanlar, bu bilan bir paytda ular yangi fikr va gʻoyalarni ham oʻzaro baham koʻradilar. Insonlarning nutqiy faoliyati davomida va jadallik bilan rivojlanib borayotgan ommaviy axborot vositalari yordamida tilga yangi tushunchalar va ularni ifodalovchi neologizmlar ham kirib keladi. Bunday hodisa hech bir tilni chetlab oʻtmaydi va albatta, ijobiy jarayon hisoblanadi. Chunki til hamisha oʻsib borishi, oʻzining soʻzlashuvchilarini eng soʻnggi axborotlar bilan taʼminlashga xizmat qilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Rahmatullayev Sh. Oʻzbek tilining etimologik lugʻati. -T.:2000.
2. S.Ozodov. “Hozirgi oʻzbek tilida neologizmlar neologizmlar” bitiruv malakaviy ishi. T.,2018.
3. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. V jild. T., 2006-2008.
4. Yuldasheva T. Oʻzbek tilida qoʻllanilayotgan neologizmlar paydo boʻlishida internet va kompyuter texnologiyalarining roli. T.,2022
5. uz.m.wikipedia.org
6. www.ziyonet.uz